



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI QARORI

2023 - yil 22 - may

149-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 18-maydagi 310-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2023-yil 3-maydagi 183-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 18-maydagi 310-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2023-yil 3-maydagi 183-son qarori ijrosi to'g'risida" 2023-yil 18-maydagi 310-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq:

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari (keyingi o'rinlarda - dasturlar) doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar 2023-yildan boshlab jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanishi;

dasturlar doirasida jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali keyingi yil uchun tadbirlarni shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni - har yili noyabr-dekabr oylarida o'tkazilishi;

2023-yilga mo'ljallangan dasturlarni tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali shakllantirish, loyihalar to'plami uchun ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori 8 mlrd so'm etib belgilanganligi, dasturlarni moliyalashtirish uchun har yili Davlat budjetidan kamida 4 trln so'm mablag' yo'naltirilishi nazarda tutilganligi;

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom

tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

G'olib mahalla hududida elektr energiyasi, tabiiy gaz, telekommunikatsiya tarmoqlarini qurish-ta'mirlash ishlari tegishlicha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, "O'zbektelekom" AKning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish choralari ko'rilishi inobatga olinganligi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiyasi, Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi bilan birgalikda qurilish-ta'mirlash ishlarining sifati, shaharsozlik faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini amalga oshirilishi;

dasturlar doirasida ajratilayotgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishi yuzasidan tizimli davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o'rinbosarlari (X.Tashpulatov, D.Xalisov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

"Obod mahalla" dasturi doirasida loyihalar to'plamini shakllantirish, baholash hamda ularning mezonlarga mosligini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus komissiya (keyingi o'rinda -maxsus komissiya) tarkibi tasdiqlansin;

tanlab olingan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'lar miqdori loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha aniqlashtirilishi belgilab qo'yilsin.

Bunda loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha aniqlashtirilgan mablag'lar miqdori Maxsus komissiya tomonidan aniqlangan dastlabki miqdordan oshib ketgan taqdirda, talab etiladigan qo'shimcha mablag'lar tegishli loyihalar to'plami tarkibidagi boshqa tadbirlardan iqtisod qilingan mablag'lar yoki "G'olib mahalla" jamg'armasidagi mavjud mablag'lar hisobidan, shuningdek, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi qaroriga asosan tegishlicha Toshkent shahar mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xalisov, X.Tashpulatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Maxmudov):

G'olib mahallalar aniqlanganidan so'ng bir hafta muddatda mazkur mahallalar hududida xo'jalik birlashmalari, aholi va tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari, homiylik xayriyalari, tijorat banklari kreditlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash uchun Toshkent shahar hokimligiga kiritilsin;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi tuman bo'limi bilan birgalikda bir oy muddatda g'olib mahallaning bosh reja sxemalari, batafsil rejalashtirish loyihalari hamda mahallalar markazining zamonaviy qiyofasi loyihalarining loyiha tashkilotlari

tomonidan ishlab chiqilishi va ular bilan bog‘liq tadbirlar tegishli mahalliy budget mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi yuzasidan xalq deputatlari Yangihayot tuman kengashiga taklif kiritilsin;

har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan dasturlar tadbirlarini moliyalashtirish bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytlari va “Ochiq budget” axborot portaliga joylashtirib borilsin;

har oy yakuni bo‘yicha dasturlar doirasida bajarilgan ishlar va moliyalashtirilgan mablag‘lar yuzasidan Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga hisobot berib borilsin.

6. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Maxmudov) dasturlar ijrosini tahlil qilib, har oyda tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

7. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (N.Hakimova) ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda dasturlardagi tadbirlar orqali aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmog‘ida keng yoritilishi tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari X.Tashpulatov va D.Xalisov zimmasiga yuklansin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov